

## “БАБУРНОМЕ” – ВАЖНЫЙ ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ И ЭТНОГРАФИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ

**Муслимбек Туйчибаев**

*Магистрант, Наманганского государственного университета, Узбекистан*

### ARTICLE INFO.

**Ключевые слова:** Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабурнаме», историко-этнографический источник, «Паркана», пословицы, пословицы, история городов, земледелие, садоводство.

### Аннотация

В данной статье раскрывается значение «Бабурнаме», одного из великих произведений XV века, как историко-этнографического источника. Автор статьи акцентирует внимание на выявлении значения «Бабурнаме» как историко-этнографического источника, а также используемых в нем различных методов, описания городов, расположенных в Ферганской долине, исторических корней топонимии географических мест региона.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ma'lumki, “Boburnoma” jahon adabiyotining XV–XVI asrlardagi Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixini o'rganishda dunyo olimlariga tayanch manba sifatida xizmat qilgan. Asar o'zidagi faktik materiallarning ko'pligi va rang-barangligi, tarixiy qimmatini bilan qator jahon olimlarining e'tiborini tortgan, unda mintaqqa xalqlari o'rtasidagi savdo-sotiq, ijtimoiy-maishiy va madaniy-ma'rifiy aloqalar aks etgan. Sharq xalqlarining urf-odatlarini, tarixiy shaxslar ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, milliy-madaniy qadriyatlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradigan qomusiy manba deb qaralgan.

O'z navbatida, “Boburnoma” jahon tarjimashunosligida original, usluban yetuk va avtobiografik adabiy manba hamda tarixiy meros namunasidir. Mazkur asar dunyo tarixshunosligi, adabiyotshunosligi va tilshunosligida muhim manba sifatida o'rganilayotgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu badiiy yodgorlikning tarjimalari tadrijiyoti hamda tarjimalari talqini chuqur o'rganilmoqda. Jahon xalqlarining xazinalaridan biri bo'lgan milliy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlarini aks ettirgan frazeologik birlik, maqol, matal va aforizmlar tarjimasining asliyatga monandligini tadqiq etish, asliga to'g'ri ekanligini isbotlash muhim masalalardan biridir.

Mamlakatimizda “Boburnoma”ni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar asosan, adabiy-tarixiy va lingvistik yo'nalishda bajarilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, adabiy-tarixiy yo'nalishda H. Qudratullayev, S. Hasanov, N. Otajonov, D. Hoshimova o'zbek va chet el adabiyoti tarixi ko'lamidagi tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lsalar, Abdurauf Fitrat, H. Yoqubov, Ya. G'ulomov, V. Zohidov, H. Sultonov, I. Sultonov, A. Qayumov, A. Hayitmetov, F. Sulaymonova, N. Mallayev, X. Nazarova, P. Qodirov, S. Jamolov, B. Valixo'jayev, R. Nabiyev, A. Abdug'afurov, B. Qosimov, N. Komilov, J. Sharipov, M. Xolbekov, B. Mamatov, G'. Xo'jayev hamda R. Vohidov singari olimlar asarga tarixiy, adabiy, geografik va tarjimaviy manba sifatida yondashib, e'tiborni badiiy-estetik qiymatiga qaratganlar [1. B. 383].

Mazkur maqolada biz asosiy e'tiborni “Boburnoma”ning tarixiy va etnografik manba sifatidagi

qaratamiz. Chunki, tadqiqot doiramizdan kelib chiqqan holda ushbu qimmatli memuar manbaning yuqoridagi jihatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida Farg'ona vodiysi tabiati haqida batafsil to'xtalib, uni shunday tasvirlaydi: "Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning qanorasida voqe' bo'lubtur... muxtasar viloyattur, oshlig'i va mevasi farovon bo'lur" [2. B. 59–60].

Shuningdek, XIX asr oxirida Farg'ona vodiysini tekshirgan olim, akademik A. Middendorf "Farg'onaning qadimiy shuhrati shunga asoslanadiki, uning barcha tabiiy sharoiti serunum qishloq xo'jaligiga qulaylik tug'dirgan. Bu shuhrat Samarqandning faxrli dong'i bilan qo'shilib ketgan" degan edi [3. C. 1]. Boshqa manbalarda Farg'ona vodiysi tabiiy jihatidan ko'pincha "baxtli Farg'ona" deb e'tirof etilgan [4. C. 471].

Odatda, turklarga ilmiy adabiyotlarda O'rta Osiyo hududiga shayboniylardan ancha avval kelib o'rnashgan turk va turk-mo'g'ul qabilalarining avlodlari deb qaraladi [5. C. 3–4]. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'ona vodiysiga turklarning joylashuvi to'g'risida o'zining "Boburnoma" asarida turkiy qabilalarning aksariyati to ko'chmanchi o'zbeklar kelgunicha bu yerda o'troqlashib ulguranganligi haqida qayd etgan.

Shuningdek, "Boburnoma"da Andijonning janubiy va sharqiy tomonidagi tog'li hududlarda istiqomat qiladigan *ashpar, turukshar hamda chog'roq* turk qabilalari haqida ma'lumotlar mavjud. Turklarning o'troqlashishi asosiy sabablaridan biri – bu ulardagi o'zbeklardagi kabi ko'chmanchilarning jamoa o'rtasidagi tabaqalashuvi va ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq edi. Ayni vaqtda, ularning ma'lum qismi uzoq asrlar davomida o'zining etnik jihatlarini saqlab qolgan va ushbu xususiyatlari bilan yon-atrofdagi boshqa etnoslardan farqlanib turar edilar.

Temuriylar davrida Marg'ilon shahri shu nomdagi beklilikning ma'muriy markazi sifatida taraqqiy etgan. Zahiriddin Muhammad Boburning Marg'ilon haqidagi ma'lumotlari ushbu beklilikning ma'muriy chegaralari borasida ham fikr yuritish imkonini beradi. "Andijonning g'arbidatur, Andijondin yetti yig'och yo'ldur. Yaxshi qasaba voqye bo'lubtur", – deya, Marg'ilonni ta'rifiga kirishgan Bobur uning anorlariga alohida to'xtaladi [6. B. 6–7]. Bu esa anor mevasi bilan qadimdan mashhur bo'lgan Quva o'sha vaqtda Marg'ilon bekligi tarkibidan bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek, muallif Burhoniddin Marg'iloniy haqida so'z yuritarkan, "Sohibi "Hidoya" Marg'inonning Rushdon otliq kentidindur", deb ta'kidlagan [7. B. 7]. Zahiriddin Muhammad Bobur Marg'ilon bekliligiga qarashligi bo'lgan uning sharqida shahardan bir shar'i masofada joylashgan Sapon kenti haqida ham ma'lumot bergan [8. B. 58].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Marg'ilon bekligi g'arbda Rishton, sharqda esa Quva kenti hududlarini o'ziga qamragan edi. U g'arbda Xo'jand bekligi, shimoli-g'arbda Ho'qoni o'rchin hududi, sharqda Andijon bekligi, shimolda Markaziy Farg'ona cho'llari orqali Axxi bekligi, janubda tog'larda yashovchi qabilalar bilan chegaradosh bo'lgan.

Farg'onada qishloq xo'jaligining eng keng tarqalgan va serdaromad tarmoqlaridan biri bog'dorchilik edi. Vodiyni o'rab turgan tog' yon bag'irlaridagi kichik daryo va soylarning havzasi to'liq bog'lar bilan qoplangan. Marg'ilon bog'dorchilik markazi Quvadan to Rishtongacha bo'lgan hududni qamrab olgan bo'lib, ne'matlarining ko'pligi bilan yaqqol ajralib turgan. Marg'ilon qasabasining sharqiy hududlarida anor, g'arbiy hududlarida esa o'rik ko'p yetishtirilgan. Anorning "donai kalon", o'rikning esa "subhoniyy" navi mashhur bo'lgan. Anordan may tayyorlashda ham foydalanilgan. O'rik esa ichiga mag'iz solib quritilgan. "Subhoniyy" o'rik navi va uni quritish uslubi hozirgacha deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolgan. Mirzo Bobur Marg'ilon haqida so'z yuritganda quyidagilarga e'tibor qaratgan: "... pur ne'mat; anori va o'rugi asru ko'p xo'b bo'lur. Bir jins anor bo'lur, "dona kalon" derlar, chuchukligida zardolu mayxushlig'idin andak choshni bor. Samnon anorlarig'a tarjeh qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'z solib quruturlar, "subhoniyy" derlar, bisyor lazizdur" [9. B. 7].

Shuningdek, muallif Xo'jand anorlari haqida so'z yuritir ekan "Anori yaxshiliqqa mashhurdir. Nechukkim, "sebi Samarqand" derlar va "anori Xo'jand" derlar. Vale bu tarixda Marg'inon anori ko'p ortiqdur", deya alohida ta'kidlagan edi [10. B. 7]. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, anorning "donai kalon" va o'rikning "subhoni" navlari asosan, vodiya yetishtirilgan. Chunki, temuriylar davrida Movarounnahrning markaziy viloyatlarida yetishtirilgan anor va o'rik navlari qatorida biz yuqorida ko'rib o'tgan navlar haqida so'z yuritilmaydi [11. B. 54–55].

"Boburnoma"da "Parkana" atamasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, ushbu manbada "Parkana" atamasi "tog'lar yoki balandliklar o'rtasidagi tekislik" ma'nosida qo'llanilgan. Shu o'rinda qayd etish kerakki, Zahiriddin Muhammad Bobur ham Afg'oniston va Hindistonda bo'lgan kezlarda u yerlardagi tog'li vodiylarning "pargana" deb atalishiga to'xtalgan bo'lib [12. B. 91], bu esa ushbu atama bilan "Parkona", "Farg'ona" nomlarining negizi bir emasmikin, degan fikrni keltirib chiqaradi. Agar qadimgi farg'onaliklarning tili hind-yevropa til oilasiga mansub bo'lgan mazmunidagi farazlarni nazarda tutadigan bo'lsak, hind tilidagi "pargana" va Farg'onaning mahalliy nomi Parkona atamaları orasida ham ma'no, ham shakl jihatidan o'xshashlik borligi ko'zga tashlanadi.

Dunyo adabiy jarayonida "Boburnoma" – o'ziga xos tarixiy hujjat va muhim ahamiyatga ega bo'lgan merosdir. Unda XV asr oxiri – XVI asr boshlarida O'rta Osiyo, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat batafsil bayon qilingan. "Boburnoma" matni tarjimalarining pragmatik, lingvokulturologik xususiyatlari va mumtoz asarlarni tarjima qilish tamoyillarini ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Bobur va boburiylarning jahon adabiyoti va tarixiga munosib tarzda qo'shgan hissalarini ilmiy asoslash, "Boburnoma" matni tarjimalarini tadqiq etish kabi tadqiqotlar e'tiborga molikdir.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, jahon adabiyoti va tarixshunosligida muhim yodgorlik, memuar hamda tarixiy-ilmiy asarlar talaygina bo'lib, bu kabi asarlarning mazmun-mohiyati yangi an'analarni yaratish, har bir millat adabiyotining muhim fazilatlarini ko'rsatishdan iborat. "Boburnoma" ham jahon adabiyoti va tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan memuar asar hisoblanadi.

Asarning jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishining yana bir asosiy sababi, undagi voqyealarning tarixiy jihatdan aniqligigina emas, bu memuar asarning o'zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalari tarixini tadqiq etish va boy ilmiy faktlarga ega mustahkam ilmiy va badiiy asosda yaratilganidir. Ushbu asar nodir tarixiy manba bo'lish bilan birga, ilm fanning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob hamdir. Unda Bobur yashab ijod qilgan davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, shu davrda yashab ijod etgan shoirlar, tarixiy shaxslar va xududlar geografiyasi, ularning kelib chiqish tarixi va nomlari ham badiiy shaklda o'zining yorqin ifodasini topgan.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:**

1. Художественный перевод и научное комментирование (на материале переводов «Бабурнаме»). – Ташкент, 1972; Отажонов Н. "Бобурнома" – жаҳон адабий жараёнида: киёсий-типологияк таҳлил. – Тошкент, 1998; Қудратуллаев Ҳ. "Бобурнома"нинг тарихий адабий ва услубий таҳлили. Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий ижодининг киёсий таҳлили асосида. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1998; Ўша муаллиф: "Бобурнома" ва тарих // Тафаккур. – 2001. – № 6; Ҳошимова Д. М. "Бобурнома" асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари ("Бобурнома" танқидий матнининг япон нашрлари мисолида). Филол. фан. ном.... дисс. – Тошкент, 2006; Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони. – Тошкент: Шарқ, 2009. – 383 б.
2. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 59–60.
3. Миддендорф О. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882. – С. 1.
4. Мушкетов И. В. Туркестан. – СПб., 1886. – С. 471.

5. Кармышева Б. Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков // СЭ. – 1960. – №1. – С. 3–4.
6. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча. 1989. – Б. 6–7.
7. Yuqoridagi manba... – В. 7.
8. Yuqoridagi manba.... – В. 58.
9. Yuqoridagi manba... – В. 7.
10. O'sha joyda.
11. Алимов Ў. Амир Темур даврида боғдорчилик / Амир Темур сабоқлари. Амир Темур ва инсон манфаатлари. Халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 54–55.
12. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.... – Б. 91.